

IJTIMOYIY TADBIRKORLIK- IJTIMOYIY RIVOJLANISHGA YO‘L

Hamrayeva Vasila Mirzohid qizi

O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya
yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ijtimoiy tadbirkorlik-korxonalar egallari uchun maksimal foyda keltirmasdan, ma’lum bir ijtimoiy muammolarni hal qilish yoki jamiyatga foyda keltirish maqsadida biror mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Soddaroq qilib tushuntiriladigan bo‘lsa, bu ijtimoiy maqsadlarni ko‘zlaydigan tadbirkorlik yo‘nalishi bo‘lib, bunda daromadlar korxonalar egallarining daromadlarini ko‘paytirishga yo‘naltirilmaydi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tadbirkor, biznes, “Grameen”, “TOMS”, daromad, preferinasiya, auktsion, mulk.

АННОТАЦИЯ

Социальное предпринимательство предполагает производство продукта или оказание услуги с целью решения определенных социальных задач или приносить пользу обществу, не принося максимальной прибыли собственникам предприятия, представляет собой целенаправленное направление бизнеса, при котором доход не направляется на увеличение доход собственников предприятия.

Ключевые слова: Социальный предприниматель, бизнес, Grameen, TOMS, доход, преференция, аукцион, имущество.

ABSTRACT

Social entrepreneurship involves the production or provision of a product or service in order to solve certain social problems or benefit society, without bringing maximum profit to the owners of the enterprise. is a focused business direction, in which the income is not directed to increase the income of the owners of the enterprise.

Keywords: Social entrepreneur, business, Grameen, TOMS, income, preference, auction, property

Ijtimoiy tadbirkor –bu jamoaviy muammolarni hal qilish xususiyatiga ega bo‘lgan, ma’lum bir tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs. Bu shaxslarning tashabbusi bilan jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar bo‘lib jamiyatning ma’lum bir qismida

o'sish kuzatilishi mumkin. Ijtimoiy tadbirkor faqat foyda olish uchun emas, aksincha kata ijtimoiy jamiyat manfaatlari uchun tadbirkorlik qilishdan manfaatdordir. Ijtimoiy tadbirkorlik asosida faoliyat yuritadigan korxonalarining ishiga asosan ijtimoiy jihatdan nobarqaror holatda bo'lgan shaxslar ya'ni: I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, mehribonlik uylarining bitiruvchilari, jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan shaxslar, qaramog'ida 16 yoshga to'lmagan yoki nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz shaxslar jalb qilinadi.

2021-yil 24-martda "Ijtimoiy tadbirkorlik" to'g'risidagi qonun loyihasi muhokamaga qo'yilgan edi. Bu tushuncha XIX asrda Yevropada ya'ni 80-90-yillarda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda korxonalarini joriy etish maqsadida yuzaga kelgan. Keling bir o'ylab ko'raylik, ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga qanday yordam berish mumkin. Masalan pul berish mumkin, yoki unda mavjud bo'lgan qandaydir ehtiyojini qondirish orqali, yoki ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash orqalimi? Bizda esa eng maqbul taklif bor, ya'ni ularni doimiy ish bilan ta'minlash bu eng qoniqarli yechim bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tadbirkorlikdan ko'zlanadigan asosiy maqsad bu jamiyatning zaif qatlamini ish bilan ta'minlash, ularning moliyaviy daromad topishiga ko'maklashishdan iborat. Aholining kam ta'minlangan yoki ijtimoiy yordamga muhtoj qatlami manfaatlari ijtimoiy tadbirkorlik orqali ta'minlanishi mumkin. Ammo bilamizki ijtimoiy yordam masalalari bugunga qadar boshqa yo'llar orqali ham ta'minlab kelinmoqda, birgina mehnat qonunchiligi nogironlar uchun har bir korxonada, muassasa va tashkilotda ish joyi ajratib berilishini nazarda tutadi yoki davlat xususiy sherikchilikda berilgan imtiyozlarni olishimiz mumkin. Ammo ijtimoiy tadbirkorlikning tadbiriq etilishi ushbu kunda yuzaga kelayotgan, hali tartibga solinmagan yoki to'liq tartibga solinmagan ayrim ijtimoiy muammolarni bartaraf etadi

Jahon tajribalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijtimoiy tadbirkor sifatida bangladeshlik tadbirkor Muhammad Yunusni olishimiz mumkin. U Grameen bankiga asos solgani hamda mikro kredit va mikrofinans tushunchalarini ilgari surgani uchun Tinchlik Nobel mukofoti bilan taqdirlangan. Bunday kreditlar an'anaviy bank kreditlari uchun o'ta kambag'al hisoblangan tadbirkorlarga beriladi. Norvegiya Nobel qo'mitasi "yirik aholi guruhlari qashshoqlikdan chiqish yo'llarini topmasa, doimiy tinchlik o'rnatib bo'lmaydi" hamda "Yunus va German banki eng kambag'al kambag'allar ham o'z rivojlanishlariga sababchi bo'la olishlari mumkinligini ko'rsatdi" dedi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki Muhammad Yunus ilk bora ijtimoiy tadbirkorlikni boshlab bergan shaxs hisoblanadi. Yoki yana bir misol AQSHning Kaliforniya shtatida o'z biznes faoliyatini boruvchi "TOMS" kompaniyasi oyoq kiyimlar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi korxonalaridan biri bo'lib, uning jamiyat aholisi uchun yaratib bergan qulayligi qaysidir xaridor o'zi uchun oyoq kiyim sotib

olsa, boshqa bir davlatning kam ta'minlangan bolalariga bir juft oyoq kiyim hadya qilinadi. Yoki yana bir misol qilib Sank-Peterburgdagi alohida ehtiyojli bolalar uchun bolalar bog'chasi tarmog'ining mavjudligini olishimiz mumkin. Bu yerda bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash hamda ijtimoiylashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Xuddi mana shunday xalq manfaatlarini uchun xizmat qiladigan tadbirkorlik yo'nalishlari ijtimoiy tadbirkorlikka misol bo'la oladi. Tadbirkorlikning turlari, yo'nalishlari ko'p bo'lgandek ijtimoiy tadbirkorlikning ham turlari talaygina. Muhimi ushbu tadbirkorlik yo'nalishi maqsadli va ijtimoiy yordamga muhtoj aholini ish bilan ta'minlanishiga bog'liq.

Ijtimoiy tadbirkorlik past daromadli faoliyat turi bo'lganligi sababli uning subektlariga soliq imtiyozlaridan tashqari qo'shimcha preferensiyalarni ham taqdim etish ko'zda tutilgan. Misol uchun, ijtimoiy korxonalar boshqa tadbirkorlik subektlari bilan auksion va tanlovlarda teng shartlarda raqobatlasha olmasligi sababli xorijiy davlatlarda (Koreya, Italiya, Rossiya) ijtimoiy korxonalar davlat mulki obektlarini xarid qilish, ijaraga berish va davlat xaridlarida qatnashish bo'yicha preferensiyalar berilgan.

Bugungi kunda boshqa har qanday mamlakatda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham hal qilinishi kerak bo'lgan ijtimoiy muammolar borligi hech kimga sir emas. Ijtimoiy tadbirkorlik esa bu muammolarni yumshatish va hal qilishning eng samarali usullaridan biri bo'lishi mumkin. Har qanday biznes kabi ijtimoiy tadbirkorlik ham byudjetga daromad keltiradi hamda mamlakatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etadi

Bugungi kunda O'zbekistonda Ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga davlat tomonidan bir qancha imtiyozlar beriladi, masalan, o'zini ijtimoiy tadbirkor deb rasmiylashtirgan shaxslarga 5% asosida kreditlar ajratiladi va bir qancha soliq turlaridan ozod qilinadi.

Xulosa o'rnida aytganda ijtimoiy tadbirkorlik mavjud ijtimoiy muammolarni hal qilishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning rivoji aynan ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga bog'liqdir, qachonki ijtimoiy muammolar barham topsa shundagina jamiyatda o'sish yuzaga keladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5919271>
2. <https://www.investopedia.com/terms/s/social-entrepreneur.asp>
3. <https://yuz.uz/uz/news/ijtimoiy-tadbirkorlik-jamiyatdagi-ijtimoiy-muammolarni-hal-eta-oladimi>
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Muhammad_Yunus
5. <https://yuz.uz/uz/news/ijtimoiy-tadbirkorlik-qanday-foйда-keltiradi>